

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tabiiy va aniq fanlar fakulteti tomonidan o'rta va umumta'lim maktablari, biologiya fani o'qituvchilariga kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida institutning biologiya fani o'qituvchisi Boboxonov M.Z tomonidan Denov dzyudo sport mahorati maktabidagi "Qon aylanish tizimi" mavzusidagi maxorat darsi

BAYONNOMASI

2023 yil 14-dekabr

Denov tumani

Qatnashdilar:

Biologiya va qishloq xo'jalik mahsulotlari
texnologiyalari kafedrasini o'qituvchilari

Denov dzyudo sport mahorati maktabi biologiya fani
o'qituvchilari va o'quvchilari.

KUN TARTIBI:


1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagi "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari turisida".
2. Maktabning laboratoriya xonasiga zarur bo'lgan jihozlar hamda o'quv ko'rgazmalar, test bankini yaratish, biologiyaga oid metodik kullannmalarga bo'lgan talablarini ishchi gurux tavsiyasi
3. O'quvchilar bilan suxbatlashish.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagi "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4805 sonli qarorining mazmun mohiyati amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida. Suxbatda Denov

tadbirkorlik va pedagogika instituti Biologiya va qishloq xo'jalik mahsulotlari texnologiyalari kafedrasini o'qituvchisi A.Ergashev kirish so'zi bilan ochib berdi. "Prezidentimiz tomonidan kimyo va biologiya fanlari rivojiga berilayotgan e'tibor, chiqarilayotgan qaror, farmonlarning

nechog'lik samarali bo'layotganligi xaqida to'xtalib o'tdi. Maktab o'quv xonalari jixozlar bilan qisman ta'minlangan. Laboratoriya jixozlari, o'quv ko'rgazmalari va Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tabiiy va aniq fanlar fakulteti professor o'qituvchilari bilan xamkorlikda o'quvchilarni darslarda yaxshiroq o'zlashtirishi uchun yangi metodlar bilan almashishlar, universitetning o'qituvchilari bilan xamkorlikni yanada kuchaytirish, xar oy o'quvchilar bilimini baxolash maqsadida test bankini yaratish, xomiylik tizimini yo'lga qo'yish, amaliyot uchun ekskursiyalar tashkil qilish va laboratoriya xonasiga zarur bo'lgan jixozlar xamda o'quv ko'rgazmalar, metodik qo'llanmalar bilan ta'minlashni yo'lga qo'ysak maqsadga muvofiq bo'lishini o'z fikrida bayon qildi.



So'ngra institutning Tabiiy va aniq fanlar fakulteti o'qituvchisi M. Boboxonov tomonidan "Qon aylanish tizimi" mavzusida "Maxorat darsi" bo'lib o'tdi. Mavzu yuzasidan ma'ruza qildilar. Darsda maktabning biologiya fani o'qituvchilari va o'quvchilari o'zini qiziqtirgan savollarini berishdi. Maxorat darsi davomida qatnashuvchilarga

A.Ergashev tomonidan "Yurakning tuzilishi" nomli videorolik taqdimoti bo'lib o'tdi. Taqdimotdan so'ng o'quvchilar bilan mavzu yuzasidan qisqa savol-javoblar bo'lib o'tdi. Darsda turli xil zamonaviy pedtexnologiyalardan foydalanildi. Maxorat darsi juda qiziqarli tarzda o'tdi.

QAROR QILADI:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805 sonli qarorining mazmun mohiyati ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Maktabning laboratoriya xonasiga zarur bo'lgan jixozlar xamda o'quv ko'rgazmalar, test bankini yaratish, biologiyaga oid metodik qo'llanmalarga bo'lgan talablarini ishchi guruh tavsiyasi sifatida qabul qilinsin.

3.O'qituvchilar va o'quvchilarni ilmiy savodxonligini oshirishga qaratilgan "Maxorat darslari" o'quv yili davomida amalga oshirilsin.

**Denov dzyudo sport
mahorati maktabi direktori:**



I.Yusupov